

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI SAMARALI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION USULLARI**

*Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani 39- son DMTT logopedi*

*Abdullayeva Shaxnoza Abduvahobovna*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning innovatsion usullari yoritilgan. Unda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda ta'lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratish masalalari tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, MTT, innovatsion yondashuv, alohida ehtiyojli bolalar, pedagogik texnologiyalar, adaptatsiya, integratsiya

**INNOVATIVE METHODS FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF INCLUSIVE EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

**Annotation.** This article explores innovative methods for effectively organizing inclusive education in preschool institutions. It highlights approaches to supporting children with special educational needs, implementing modern pedagogical technologies, and ensuring equal learning opportunities for all children. The study emphasizes the importance of individualized instruction, the use of digital tools, and collaborative teaching strategies in enhancing inclusive educational practices.

**Keywords:** inclusive education, preschool education, innovative approaches, special needs children, pedagogical technologies, adaptation, integration

Nogironligi bo'lgan shaxslar mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotida faol ishtirok etishi uchun zarur huquqiy, tashkiliy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda davlatimiz rahbarining shu masala bo'yicha muhim qaror va farmonlari qabul qilingani nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni umidsizlik hamda ishonchsizlik kayfiyatidan xalos etish, hayotga intilishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda inklyuziv ta'limni rivojlanishiga bugungi kunda katta ahamiyat qaratilmoqda, chunki, O'zbekistonda inklyuziv ta'lim – davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biridir. Nogironligi bo'lgan bolalarning umumta'lim maktablariga integratsiyalashuvi inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanishidagi tabiiy bosqichdir. Bu jamiyat va davlat tomonidan nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan munosabatni qayta ko'rib chiqish, nafaqat ularning huquqlari tengligini tan olish, balki jamiyatning bunday bolalarga turli

sohalarda, shu jumladan ta'limda ham keng imkoniyatlarni taqdim etish majburiyatini anglashi bilan bog'liq.

Nogironligi bo'lgan bolalar sonining o'sishi, ularni jamiyatning to'liq hayotiga jalb qilish zarurligini anglatadi, bu esa o'z navbatida ularning to'liq ta'lim olish huquqlarini ta'minlanishini inklyuziv ta'lim g'oyasi va amaliyotining tobora ommalashib borayotganidan bilish mumkin. Jahon miqyosida BMTning «Bola huquqlari to'g'risida» Konvensiyasi, «Nogironlar huquqlari haqida»gi Deklaratsiyalari nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga erta uyg'unlashuvi muammosini hal qilish, zamonaviy maxsus ta'limni mazmunini yangilash, innovatsion g'oyalarning tatbiq etilishiga asos bo'lmoqda.



***Inklyuziv ta'lim** — bu barcha bolalarning, ularning jismoniy, aqliy, psixologik yoki ijtimoiy holatidan qat'i nazar, teng ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Ushbu yondashuv nafaqat alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni qo'llab-quvvatlash, balki sog'lom rivojlanayotgan bolalarda ham bag'rikenglik,*


*hamjihatlik va ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.*

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari hamda konsepsiyalar inklyuziv yondashuvni keng joriy etishni nazarda tutadi. Bu esa MTTlarda ta'lim-tarbiya jarayonini yangicha, zamonaviy va innovatsion asosda tashkil etishni talab etadi.

Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish ko'p jihatdan pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, ularning innovatsion yondashuvlarni qo'llay olish qobiliyati hamda ta'lim muhitining moslashuvchanligiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv metodlarni qo'llash va kooperativ ta'lim shakllarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, inklyuziv ta'limni samarali amalga oshirishda ota-onalar bilan hamkorlik, mutaxassislar (psixolog, logoped, defektolog) bilan tizimli ishlash hamda bolalar uchun qulay psixologik-pedagogik muhit yaratish muhim omillardan hisoblanadi. Ayniqsa, erta yosh davrida berilgan to'g'ri pedagogik yondashuv bolalarning keyingi rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning innovatsion usullarini tahlil qilish, ularning amaliy ahamiyatini ochib berish hamda zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlarini yoritish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Qo‘shma turdagi maktabgacha ta‘lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning va rivojlanishida nuqsonlari bo‘lmagan bolalarning bitta tashkilotda alohida guruhlarda, shuningdek inklyuziv guruhlarda birgalikda o‘qishini hamda tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat ta‘lim dasturi amalga oshirilishi ta‘minlanadi. Guruhlar yoshga doir toifalar bo‘yicha ilk rivojlanish 1 yoshdan 3 yoshgacha, kichik 3 yoshdan 4 yoshgacha, o‘rta 4 yoshdan 5 yoshgacha, katta 5 yoshdan 6 yoshgacha guruhlariga va maktabga tayyorlov guruhiga 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘linadi. Guruhlarni to‘ldirish va bolalarni bir guruhdan boshqasiga o‘tkazish har yili o‘quv yili boshlanguniga qadar amalga oshiriladi. Maktabgacha ta‘lim va maktab ta‘limi vazirligi bilan kelishuvga ko‘ra guruhlarini ularni to‘ldirishning eng ko‘p miqdori oshirilgan holda tashkil etishga yo‘l qo‘yiladi. Nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida guruhlarini to‘ldirish tartibi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini saqlashga, ularning tuzilishiga va ulardagi ish rejimini tashkil etishga doir sanitariya-gigiena talablari hisobga olingan holda ularning muassisi tomonidan belgilanadi. Qonunda ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari: bolalar, ularning qonuniy vakillari va pedagog xodimlarning huquq va majburiyatlari qayd etilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy himoyalash kafolatlanadi, ularni ovqatlantirishni tashkillashtirish va sog‘lig‘ini muhofaza qilish tartibi, pedagoglarning haftalik ish yuklamasi va mehnatiga haq to‘lash tartibi belgilangan. Davlat bolalar bog‘chalarining boshqaruv organlari: pedagoglar kengashi, kuzatuv kengashi va rahbarlarning vakolatlari tartibga solindi. Ta‘lim xizmatlarini oluvchilar nuqtai nazaridan, ta‘lim va tarbiya jarayoni sifati ta‘minlanishi muhimdir. Buning uchun quyidagi davlat boshqaruvi dasturlari qo‘llaniladi: maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasi 5 yilda o‘tkaziladi, xususiy tashkilotlarning faoliyati litsenziyalanadi. Ikkala holatda ham tartib Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan.



Barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun majburiy bo'lgan davlat standarti qabul qilinadi va kamida 5 yilda 1 marta qayta ko'rib chiqiladi, davlat ta'lim dasturlari tasdiqlanadi; Pedagogning kasbiy standarti Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi, pedagogning kasbiy standarti pedagogning shaxsiy sifatlariga nisbatan uning bilimlari, mahorati va ko'nikmalaridan ajralmas bo'lgan talablar qo'yadi. Pedagog xodimlar 5 yilda kamida 1 marta attestatsiyadan o'tkaziladi. Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar, shuningdek qasddan jinoyatlar sodir etganligi uchun ilgari hukm qilingan shaxslar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas. Shu bilan birga maktabgacha ta'lim tizimiga bir qator vazifalar belgilandi. Jumladan, 2021 yil yakuni bilan maktabgacha ta'lim qamrovini 65 foizga, 2023 yil oxirida esa 75 foizga 2024 yilda esa 80 foizga yetkazish kerakligi belgilangan edi. Bu ishlarga byudjetdan 600 milliard so'm subsidiya berish hisobidan qo'shimcha ravishda 2 61 mingta nodavlat bog'cha tashkil etilib, xususiy sektor ulushi 25 foizga yetkaziladi. Shuningdek, 2021 yilda maktabga tayyorlashning bepul tizimi bilan 560 ming nafar 6 yoshli bolalar yoki ularning 82 foizi qamrab olinadi. Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'limning muqobil shakllari yanada kengaytiriladi. Bunda YuNISEF hamda Jahon banki bilan hamkorlikda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktabgacha ta'limni uyda berish modeli ham yo'lga qo'yiladi. Shunday ekan, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratishimiz, maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni keskin oshirishimiz, sog'lom, faol, barkamol, ijtimoiy

moslashtirilgan bola shaxsini, shuningdek, kelgusi muvaffaqiyatli o‘quv faoliyati uchun shart sharoitlarni shakllantirish va bolalarni boshlang‘ich ta‘limga sifatli tayyorlashimiz talab etiladi. Shuningdek, boshlang‘ich ta‘lim o‘quv dasturlarining o‘zaro uzviyligini ta‘minlash, maktabgacha ta‘lim tizimida zamonaviy o‘qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashimiz zarur. Bu masalalar bugungi kunning dolzarb va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalaridan hisoblanadi.

**Tahlillar shuni ko‘rsatadiki**, inklyuziv ta‘limni to‘liq va sifatli amalga oshirish uchun MTTlarda moslashtirilgan ta‘lim muhiti yaratish, metodik ta‘minotni takomillashtirish hamda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarur. Bu esa nafaqat alohida ehtiyojli bolalarning rivojlanishiga, balki barcha tarbiyalanuvchilarning har tomonlama kamol topishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Kelgusida inklyuziv ta‘limni rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va milliy tizimga moslashtirish, pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish hamda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv ta‘limni samarali tashkil etish zamonaviy ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv yondashuv asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni har bir bolaning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularning ijtimoiy moslashuvini ta‘minlash hamda jamiyatda tenglik va bag‘rikenglik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish, individual ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish hamda kooperativ ta‘lim metodlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish, mutaxassislar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va ota-onalarni ta‘lim jarayoniga faol jalb etish inklyuziv ta‘lim samaradorligini yanada oshiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli Qonuni (2019 yil 16 dekabr).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 3 mart “Bolalarni boshlang‘ich ta‘limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli qarori.
5. Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 May 2015, Incheon, Republic of Korea)